

INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 7



@QMI_Institut



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
7-son
dekabr, 2025

December 2025
Volume 3
Number 7

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.*

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi 225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy
O'zbekiston elektron jurnali ta'lim, fan va
innovatsiyalar Respublikasi Oliy vazirligi
huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi**
rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli
qarori bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar
nashr etiladi:**

1. Raqamli iqtisodiyot
2. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
4. Inson kapitali iqtisodiyoti
5. Menejment va marketing
6. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
7. Moliya, kredit va investitsiya
8. Ekonometrika va statistika
9. Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

*Ovchinikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal
Universitet, Rossiya)*

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

*Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog'iston Respublikasi
Milliy fanlar akademiyasi)*

*Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi
Tojikiston agrar universiteti)*

*Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva
energetika instituti, Rossiya)*

*Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar
do'stligi universiteti)*

*Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya
Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)*

*Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti,
Rossiya Federatsiyasi hukumati)*

*Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi
Milliy fanlar Akademiyasi)*

*Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat
universiteti)*

*Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi
Rossiya xalqlar do'stligi universiteti)*

*Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar
universiteti)*

*Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati
huzuridagi Moliya universiteti)*

*Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat
fanlari instituti)*

*Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universiteti)*

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ojs.qmii.uz

Bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladigan hujjatlar to'plamini takomillashtirish masalalari

Tilovov Jamshid Norbobo o'g'li

Вопросы совершенствования комплекта документов, используемых в бухгалтерском учете между банком и предприятием

Тиловов Джамшид

Improving the set of documents used in accounting between a bank and an enterprise

Tilov Dzhamshid

Received: December 4, 2025 Revised: December 6, 2025

■ Accepted: December 8, 2025 ■ Published Online: December 30, 2025

- **ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladigan hujjatlar to'plamini takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqot jarayonida hisob-kitob hujjatlarining moliyaviy operatsiyalar aniqligi, shaffofligi va ishonchliligini ta'minlashdagi o'rni tahlil qilindi. Hujjatlarni tahlil qilish metodi asosida bank ko'chirmalari, to'lov topshiriqnomalari, shartnomalar va buxgalteriya registrlarining amaldagi holati baholanib, mavjud muammolar aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari hujjatlarni standartlashtirish, elektron hujjatlar ulushini oshirish hamda bank va korxona o'rtasidagi muvofiqlashtirish jarayonini takomillashtirish hisob-kitoblarning samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatdi.
- **Kalit so'zlar:** bank va korxona hisob-kitoblari, buxgalteriya hujjatlari, to'lov topshiriqnomasi, bank ko'chirmasi, hujjatlarni takomillashtirish.
- **АННОТАЦИЯ:** В статье рассматриваются вопросы совершенствования комплекса документов, применяемых при расчетах между банком и предприятием. В ходе исследования проанализирована роль расчетных документов в обеспечении точности, прозрачности и надежности финансовых операций. На основе метода

анализа документов дана оценка текущего состояния банковских выписок, платежных поручений, договоров и бухгалтерских регистров, а также выявлены основные проблемы их использования. Результаты исследования показывают, что стандартизация документов, расширение применения электронного документооборота и совершенствование процессов согласования между банком и предприятием способствуют повышению эффективности расчетов.

- **Ключевые слова:** банковские расчеты, бухгалтерские документы, платежное поручение, банковская выписка, совершенствование документооборота.
- **ABSTRACT:** This article examines the issues of improving the set of documents used in settlements between banks and enterprises. The study analyzes the role of accounting documents in ensuring the accuracy, transparency, and reliability of financial transactions. Using the document analysis method, the current state of bank statements, payment orders, contracts, and accounting registers was assessed, and key problems in their application were identified. The findings indicate that document standardization, increased use of electronic documentation, and improved reconciliation processes between banks and enterprises contribute to enhancing the efficiency and reliability of financial settlements.
- **Keywords:** bank–enterprise settlements, accounting documents, payment order, bank statement, document improvement.

KIRISH

Bank va korxona o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblar zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy barqarorlik va shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Xususan, korxonalarning iqtisodiy faoliyati davomida banklar bilan amalga oshiriladigan pul o'tkazmalari, kreditor va debitor qarzdorliklar hamda boshqa operatsiyalar hujjatlashtirilgan va tasdiqlangan shaklda bo'lishi lozim. Buning uchun to'g'ri va to'liq hujjatlar to'plami mavjudligi—moliyaviy hisobotlar sifati va ishonchligini bevosita ta'minlovchi omil hisoblanadi [1].

Hisob-kitob hujjatlari — bu pul operatsiyalarini tasdiqlovchi, moliyaviy holatni ko'rsatadigan manbalar bo'lib, ularning to'liq va aniq shakllanishi korxona va bank o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda nizolarni kamaytiradi va audit talablariga javob beradi. Masalan, bank hisobvaraqxonalari, cheklar, to'lov topshiriqlari, kontraktlar va boshqa tegishli hujjatlar asosiy hujjat turkumiga kiradi [2].

Moliyaviy hisobotlar to'g'riligini ta'minlashda ham bank reconciliation (bank bilan muvofiqlashtirish) jarayoni katta o'rin tutadi — u korxona buxgalteriya hisobida ko'rsatilgan summalar bilan bank tomonidan berilgan balansni solishtirish orqali o'zaro farqlarni aniqlaydi va tuzatadi [3]. Bu jarayon orqali, nomuvofiqliklar sabablarini aniqlash, noto'g'ri yozuvlarni to'g'rilash hamda moliyaviy hisobotning ishonchligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

Biroq amaliyotda bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda ishlatiladigan hujjatlar to'plamining tashkiliy, metodologik va normativ asoslarini takomillashtirish masalalari o'z yechimini kutmoqda. Ayrim tadqiqotlar moliyaviy reconciliation jarayoni hisobotlarning aniqligini yaxshilashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi, ammo bu jarayonning hujjatlashtirish

tizimi va hujjatlar to'plamining samaradorligini oshirish yuzasidan yetarli ilmiy izlanishlar yetishmaydi [4]. Xususan, banklar va korxonalar o'rtasidagi hujjat almashinuvi tartibini takomillashtirish orqali operatsiyalar samaradorligini oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va moliyaviy hisobotga bo'lgan ishonchni oshirish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqola bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladigan hujjatlar to'plamini aniqlashtirish, ularning standartlashtirilishini ta'minlash hamda mavjud amaliyotlarni takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladigan hujjatlar to'plamini takomillashtirish masalalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda hujjatlarni tahlil qilish (document analysis) metodi asosiy tadqiqot usuli sifatida tanlandi. Ushbu metod iqtisodiy va buxgalteriya tadqiqotlarida keng qo'llanilib, moliyaviy hujjatlar, normativ-huquqiy manbalar hamda amaliy hisobotlarni tizimli ravishda o'rganish imkonini beradi [5].

Hujjatlarni tahlil qilish metodi tadqiqot mavzusiga mos ravishda tanlanishining asosiy sababi shundaki, bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitob jarayoni bevosita rasmiy hujjatlar — to'lov topshiriqnomalari, bank ko'chirmalari, shartnomalar, hisob-fakturalar va buxgalteriya registrlari orqali amalga oshiriladi. Ushbu hujjatlarning mazmuni, rasmiylashtirilish tartibi va o'zaro uyg'unligi hisob-kitoblarning aniqligi hamda shaffofligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi [6].

Tadqiqot jarayonida hujjatlarni tahlil qilish quyidagi

bosqichlarda amalga oshirildi: birinchi bosqichda bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarga oid amaldagi hujjatlar turlari aniqlashtirildi va tasniflandi; ikkinchi bosqichda ushbu hujjatlarning rasmiylashtirish talablari va amaliyotda uchraydigan kamchiliklari tahlil qilindi; uchinchi bosqichda esa hujjatlar to'plamini takomillashtirish imkoniyatlari ilmiy adabiyotlar va ilg'or tajribalar asosida baholandi. Mazkur yondashuv hujjatlar tizimidagi nomuvofiqliklar va takrorlanishlarni aniqlash hamda ularni optimallashtirish bo'yicha xulosalar chiqarishga imkon berdi [7].

Shuningdek, hujjatlarni tahlil qilish metodi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va obyektivligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etdi, chunki tahlil jarayonida faqat rasmiy va tekshirilgan manbalarga tayangan holda xulosalar shakllantirildi. Bu esa bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitob hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga zamin yaratdi.

Tadqiqot jarayonida hujjatlarni tahlil qilish metodi asosida bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladigan asosiy hujjatlar to'plami o'rganildi hamda ularning amaldagi holati baholandi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, hisob-kitob hujjatlarining mavjudligi va ularning to'g'ri rasmiylashtirilishi moliyaviy operatsiyalarning aniqligi va shaffofligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.⁷ O'rganish jarayonida to'lov topshiriqnomalari, bank ko'chirmalari, shartnomalar, hisob-fakturalar hamda buxgalteriya registrlari eng ko'p qo'llaniladigan hujjatlar sifatida aniqlanib, ularning mazmuni va funksional vazifalari tahlil qilindi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, ayrim hujjatlarning rasmiylashtirilishida bir-birini takrorlash holatlari va bank hamda korxona hisob ma'lumotlari o'rtasida nomuvofiqliklar uchrayib turadi. Bu holat moliyaviy hisobotlarda xatolarga olib kelishi va nazorat jarayonini murakkablashtirishi mumkin [8]. Quyidagi jadvalda bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda keng qo'llaniladigan hujjatlar, ularning asosiy vazifalari hamda aniqlangan muammolar umumlashtirilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval.

Bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitob hujjatlari va ularning tahlili

HUJJAT TURI	ASOSIY VAZIFASI	ANIQLANGAN MUAMMOLAR
To'lov topshiriqnomasi	Pul mablag'larini bank orqali o'tkazishni rasmiylashtirish	Rekvizitlarning noto'liq to'ldirilishi
Bank ko'chirmasi	Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni aks ettirish	Buxgalteriya yozuvlari bilan nomuvofiqlik
Shartnoma	Hisob-kitoblarning huquqiy asosini belgilash	Amaldagi shartlarning hujjatlarda to'liq aks etmasligi
Hisob-faktura	Tovar va xizmatlar qiymatini tasdiqlash	Raqamlar va summalarda tafovut
Buxgalteriya registrlari	Hisob ma'lumotlarini umumlashtirish	Ma'lumotlarni kechiktirib kiritish

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, hujjatlar to'plamining yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi va ularning yagona standart asosida yuritilmasligi bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda asosiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, bank ko'chirmalari bilan buxgalteriya yozuvlari o'rtasidagi tafovutlar bank reconciliation jarayonining samarali olib borilmasligidan dalolat beradi [9].

Shu bilan birga, tahlil natijalari hujjatlar to'plamini takomillashtirish orqali moliyaviy nazoratni kuchaytirish, hisob-kitoblarda aniqlikni oshirish va hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash mumkinligini ko'rsatdi. Xususan, hujjatlarni standartlashtirish, elektron shakldagi hujjatlar

ulushini oshirish va bank bilan muvofiqlashtirish jarayonini muntazam olib borish ijobiy natijalarga olib kelishi mumkin. Mazkur tadqiqot natijalari bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladigan hujjatlar to'plamining sifati va tizimliliigi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Ushbu xulosa buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi ko'plab tadqiqotlar natijalari bilan uyg'unlik kasb etadi. Xususan, Gray va Manson (2011) moliyaviy operatsiyalarni hujjatlashtirishdagi kamchiliklar bank reconciliation jarayonida nomuvofiqliklarni keltirib chiqarishini ta'kidlaydi.¹⁰

Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy muammolardan biri — bank ko'chirmalari va korxona buxgalteriya registrlari

o'rtasidagi tafovutlardir. Bu holat Atrill va McLaney (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham qayd etilgan bo'lib, mualliflar bunday tafovutlarning asosiy sababi sifatida hujjatlarni rasmiylashtirishda yagona standartlarning yetarli darajada qo'llanilmasligini ko'rsatadi. Mazkur maqolada olingan natijalar ushbu fikrni yana bir bor tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari hujjatlar to'plamining ortiqcha murakkabligi va ayrim hujjatlarning takrorlanishi hisob-kitob jarayonlarini sekinlashtirishini ko'rsatdi. Saunders, Lewis va Thornhill (2019) o'z ishlarida moliyaviy boshqaruv tizimlarida hujjatlar sonining ko'pligi emas, balki ularning aniqligi va moslashuvchanligi muhim ekanini qayd etadi. Ushbu jihatdan, mazkur tadqiqot natijalari ilgari surilgan nazariy qarashlar bilan to'liq mos keladi.

Biroq, mavjud tadqiqotlardan farqli o'laroq, ushbu maqolada bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitob hujjatlarini takomillashtirish masalasi alohida tizim sifatida ko'rib chiqildi. Avvalgi tadqiqotlarda hujjatlar ko'proq audit yoki moliyaviy nazorat nuqtai nazaridan tahlil qilingan bo'lsa, mazkur tadqiqotda ularning o'zaro uyg'unligi va amaliy samaradorligi asosiy e'tibor markaziga olindi. Bu esa tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Umuman olganda, muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladigan hujjatlar to'plamini takomillashtirish nafaqat moliyaviy nazoratni kuchaytiradi, balki korxonalarning banklar bilan o'zaro munosabatlarida ishonch va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu holat ilgari olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan mantiqan uyg'unlashadi va ularni amaliy jihatdan boyitadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur ilmiy maqolada bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda qo'llaniladigan hujjatlarga to'plamini takomillashtirish masalalari tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida hisob-kitob hujjatlari moliyaviy operatsiyalarning aniqligi, shaffofligi va ishonchililigini ta'minlovchi asosiy vosita ekanligi yana bir bor tasdiqlandi. Bank va korxona o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi nafaqat buxgalteriya hisobi sifatiga, balki moliyaviy nazorat va boshqaruv samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari amaliyotda mavjud bo'lgan ayrim muammolar, xususan, hujjatlarning takrorlanishi, rekvizitlarning noto'liq to'ldirilishi hamda bank ma'lumotlari bilan korxona buxgalteriya yozuvlari o'rtasidagi nomuvofiqliklar hisob-kitob jarayonlarini murakkablashtirayotganini ko'rsatdi. Bu holatlar moliyaviy hisobotlarda xatolarga olib kelish ehtimolini oshiradi va

bank bilan muvofiqlashtirish jarayonining samaradorligini pasaytiradi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida hujjatlar to'plamini takomillashtirish orqali mazkur muammolarni bartaraf etish mumkinligi asoslab berildi. Xususan, hujjatlarni yagona standart asosida rasmiylashtirish, ularning elektron shakllaridan kengroq foydalanish hamda bank va korxona o'rtasidagi axborot almashinuvini tizimli yo'lga qo'yish hisob-kitoblarning aniqligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv moliyaviy nazoratni kuchaytirish, hisobotlarning ishonchililigini ta'minlash va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash imkonini beradi.

Umuman olganda, mazkur maqola bank va korxona o'rtasidagi hisob-kitoblarda hujjatlarni tizimini takomillashtirish masalalariga ilmiy-amaliy yondashuvni taklif etadi hamda ushbu yo'nalishda olib boriladigan keyingi tadqiqotlar uchun nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Tilovov Jamshid Norbobo o'g'li QDTU, "Buxgalteriya hisobi" mutaxassisligi 2-bosqich magistranti / Тиловов Джамшид Норбабо оглу, студент 2-го курса магистратуры по специальности «Бухгалтерский учет» КГТУ / Tilov Jamshid Norbabo oglu, a second-year master's student majoring in Accounting at KSTU

► Jamshidtilovov951@gmail.com

■ 0009-0002-6597-815X

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gray, I., & Manson, S. (2011). *The Audit Process: Principles, Practice and Cases*. 5th Edition. Cengage Learning, London, pp. 145–160. <https://www.cengage.com>
2. Atrill, P., & McLaney, E. (2019). *Accounting and Finance for Non-Specialists*. 11th Edition. Pearson Education, Harlow, pp. 210–225. <https://www.pearson.com>
3. Saunders, M., Lewis, P., & Thornhill, A. (2019). *Research Methods for Business Students*. 8th Edition. Pearson Education, London, pp. 585–600. <https://www.pearson.com>
4. Bowen, G. A. (2009). Document Analysis as a Qualitative Research Method. *Qualitative Research Journal*, 9(2), 27–40. <https://doi.org/10.3316/QRJ0902027>
5. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2020). *Intermediate Accounting*. 17th Edition. Wiley, New York, pp. 112–130. <https://www.wiley.com>
6. Basel Committee on Banking Supervision. (2018). *Principles for Financial Market Infrastructures*. Bank for International Settlements, Basel. <https://www.bis.org>
7. Revsine, L., Collins, D., Johnson, B., & Mittelstaedt, F. (2019). *Financial Reporting and Analysis*. 7th Edition.

McGraw-Hill Education, pp. 98–115. <https://www.mheducation.com>

8. Elliott, B., & Elliott, J. (2020). Financial Accounting and Reporting. 19th Edition. Pearson Education, pp. 265–280. <https://www.pearson.com>

9. Соколов, Я. В. (2017). Бухгалтерский учет. 6-е изд. Москва: Магистр, с. 184–201.

10. Ковалёв, В. В. (2019). Финансовый учет и анализ. Москва: Юрайт, с. 233–250.

11. Шеремет, А. Д., & Негашев, Е. В. (2018). Методика финансового анализа. Москва: ИНФРА-М, с. 142–158.

12. Палий, В. Ф. (2016). Международные стандарты финансовой отчетности. Москва: ИНФРА-М, с. 90–108.

13. O'zbekiston Respublikasi. (2023). "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun. <https://lex.uz>

14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2022). Bank hisobvaraqlari va hisob-kitob operatsiyalarini yuritish

tartibi. <https://cbu.uz>

15. G'ulomov, S. S. (2020). Buxgalteriya hisobi va audit asoslari. Toshkent: Iqtisod-Moliya, 156–170-betlar.

16. Bushman, R. M., & Smith, A. J. (2001). Financial Accounting Information and Corporate Governance. Journal of Accounting and Economics, 32(1–3), 237–333. [https://doi.org/10.1016/S0165-4101\(01\)00027-1](https://doi.org/10.1016/S0165-4101(01)00027-1)

16. Dechow, P. M., & Schrand, C. (2004). Earnings Quality. The Research Foundation of CFA Institute. <https://www.cfainstitute.org>

17. Jumayeva G. J. Xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari tahlilining ilmiy asoslari // YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2025. – T. 3. – №. 3.

18. Jumayeva G. J. MOLIYAVIY HISOBOT TAHLILINI O'TKAZISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //International Conference on Modern Science and Scientific Studies. – 2025. – C. 179-182.